

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**  
**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**  
**SURXANDARYO VILOYATI SHAROITIDA CHETEL XINLUZAO-78**  
**NAVIDAN YUQORI HOSIL OLIISH**

**A.N.Akbo’tayev**

TDMAU, datsent, q.x.f.n.

**Annotatsiya:** Mazkur ishda Surxandaryo viloyati, Denov tumanidagi “Panji” fermer xo‘jaligi dalasida Xitoydan keltirilgan XinLuZao № 78 g‘o‘za navining moslashuvchanligi, o‘sish dinamikasi va hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tadqiqot Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikda olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, mazkur nav Surxandaryo viloyati iqlim sharoitiga tez moslashgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lib, 30 gektar maydondan 80–85 s/ga hosil berishi aniqlangan. Navning ixcham shoxlanishi, yuqori tola chiqimi (44,2%) va yaxshi tolalar sifati uni mintaqa sharoitida istiqbolli navlardan biriga aylantiradi.

**Kalit so‘zlar:** XinLuZao № 78, g‘o‘za navi, Surxandaryo viloyati, hosildorlik, tola chiqimi, chet el navi, agrotadbirlar, Xitoy g‘o‘zasi, vegetatsiya davri, resurstejamkor texnologiya.

**Kirish:** Keyingi yillarda O‘zbekistonda agrar sohani rivojlantirish va qishloq xo‘jaligida zamonaviy inovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha juda jiddiy va samarali choralar ko‘rilmoqda. Ushbu sohada yo‘nalishdagi islohotlar va yutuqlar sohada raqobatbardoshlikni taqdim etadi. Ammo buning uchun hozirda dunyoning boshqa mamlakatlarida qo‘llanadigan zamonaviy raqamli texnologiyalarni va ishlab chiqarishda joriy etish talab qilinadi. Mamlakatimizda paxtachilik tarixida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Paxta ekiladigan maydonlar qisqarishiga qaramay, bir gektardan olinadigan hosildorlik ham ortib bormoqda. Dehqon va fermerlarimiz kam xarajat qilib yuqori hosil olishga qaratilgan resurstejamkor agrotexnologiyalar qo‘llamoqdalar. Bugungi kunda yuqori hosil beradigan chet el g‘o‘za navlari ekiladigan maydonlar kengaytirildi. Paxtachilikda 2 yil bir maydonga bir xil nav ekishga barham berilmoqda. Navlarni hududlar kesimida almashtirib ekish —

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

urug‘larni tindirib ekishga e‘tibor qaratilmoqda. Dunyoda eng ko‘p paxta ishlab chiqaradigan mamlakat — Xitoydir. Paxta Xitoyning qariyb barcha mintaqalarida: Shimoliy-Xitoy tekisligida, Yanszi daryosi deltasida, Yanszi vodiysining markaziy qismida, Sinszyan-Uyg‘ur avtonom rayonida parvarish qilinadi. Xitoyliklar yiliga 17 million tonnadan ortiq paxta yetishtiradilar. Xitoydan keyin AQSh, Hindiston, Pokiston, O‘zbekiston davlatlari turadi. Paxtachilik Xitoyda serdaromad soha hisoblanadi, hosildorligi bo‘yicha Xitoy jahonda birinchi o‘rinda turadi. Hindiston esa har gektar yerdan olinadigan paxta hosili bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlarga ega. Hindiston paxta ekiladigan maydonlarining kattaligi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda bo‘lsa ham, yetishtirilayotgan paxtaning miqdori, hajmi bo‘yicha Xitoy bilan Amerikadan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Hindistonda paxta asosan sug‘orilmaydigan yerlarda, oddiy, agrotehnika qonun-qoidalari bilan yetishtiriladi.

**XinLuZao № 78 haqida qisqacha malumot:** XinLuZao № 78 Xinjiang Jinfengyuan seed Industry Co., LTD tomonidan tanlab olingan va ko‘paytirilgan. Ko‘p yilik izlanishlardan so‘ng 2017 yilda XinLuZao № 78 deb nomlangan. Bu navning usish davri 115-120 kun , g‘o‘za o‘simligi ixcham shoxlangan. Barglari mayda, ko‘saklar shoxlarda balandda joylashgan, shamollatish va yorug‘lik o‘tkazuvchanligi yaxshi. O‘simlik bo‘yi 80-85sm oralig‘ida nazorat qilish tavsiya etiladi. Ko‘chat qalinligi 195-210 ming/ga . hosildorligi 70,5-80st/ga. Ko‘sagi ovalsimon, nuqtasiz, bitta ko‘sakdagi paxta og‘irligi 5,5-7 gramm, tola chiqimi 44,2% . Paxta tolasining uzunligi 31,8 mm nisbiy uzilish kuchi 30,5 g.k/teks, mikroneyri 4,3, tolaning bir xilligi 85% ni tashkil qiladi.



# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

**Tadqiqot usullari:** Entomologik hisoblar va kuzatuvlarni B. Yaxantov Beenko 1943-yil hasharotlarning zichligini SH.T.Xodjayev 2014, entomofaklarning domenantligi va miqdorini K.K.Fasulati, S.N.Alimuxammedovning usullari asosida bajariladi.

**Tadqiqot o‘tkazilgan manzili, natijalari:** Denov tumanidagi “Hazarbog” S FU qarashli “Panji” fermer xujaligi 30 gektarga Xitoydan olib kelingan XinLuZao № 78 navi 2025-yilda Surxandaryo viloyati dala sharoitida o‘stirilayotgan Xitoydan keltirilgan. Bu yangi nav tez moshlshuvchandir. 76- sxema qo‘sh qatorlab ekish 30 gektar paxta maydonda ekilib, g‘o‘zaning vegetatsiya davrida ilman asoslangan holda, belgilangan paytida agrotexnik tadbirlar olib borildi. G‘o‘zaning o‘sov davri may oyining 2-chi dekadasi Xitoy navi ekilgan, maydan namgarchilik yuqori sug‘orish keying holatda ozgina 2-3 tur o‘simlik bitlari aniqlandi mutaxassislar tomonidan darhol bartaraf etildi. Termiz davlt muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti “O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va agrotuproqshunoslik” kafedrasining Q.x.f.d., professor Xaytmurodov A.F, Xolmo‘minova G.Q, Quchqorov A.M, Akbo‘tayev A.N q.x.f.n va B.Normatovlar universitet olimlari bilan ilmiy hamkorlikda berilgan tavsiyalari natijasida “Panji” fermer xo‘jaligi Xitoydan keltirilgan XinLuZao № 78 navidan 80-85 sentnerdan hosil olishga erishildi.



**Xulosa:** O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, **XinLuZao № 78** g‘o‘za navi Surxandaryo viloyati sharoitida yetishtirish uchun to‘liq mos keladi. U iqlim va tuproq sharoitiga tez moslashadi, sho‘r yerlarda ham barqaror o‘sadi,

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

hosildorligi yuqori va tola sifati xalqaro standartlarga javob beradi. Navning o‘rtacha vegetatsiya davri 115–120 kunning tashkil etadi, o‘suv davrida zarur agrotexnik tadbirlar qo‘llanganda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Shu sababli, mazkur navni mintaqaning boshqa tumanlarida ham sinovdan o‘tkazish va keng ko‘lamda ekishni tavsiya etish mumkin.

### **Foydalangan adabiyotlar royxati:**

1. Dorivor va oziqabop o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma (tuzuvchilar: B.Y.To‘xtayev, T.X. Mahkamov, A.A.To‘laganov, A.I.Mamatkarimov, A.V.Mahmudov, M.O‘.Allayarovlar). – Toshkent, 2021. – 137 b.

2. “Dorivor o‘simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun dorivor o‘simliklarning sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish”. – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 avgustdagi 222-sonli majlis bayoni, 3-bandi. Toshkent, 2013.

3. “2015–2017 yillarda o‘rmon xo‘jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o‘simliklar xom-ashyosini yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 yanvardagi № 5-sonli majlis bayoni, 1.12-bandi. Toshkent, 2015.

4. Abzalov A.A., Berdiev E.T., Qayimov A.Q., Ahmedov O‘.A, Xolmuradov M.Z., Yulchieva M.T. Na‘matak plantatsiyasini barpo etish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. – Toshkent, “Konsauditinform-Nashr” MChJ, 2020. – 8 b.

5. Xo‘jayev Sh.T. O‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari (darslik). Toshkent, 2015.

6. Murodov S.A. Umumiy entomologiya kursi (darslik). Toshkent, 1986.

7. Yakhontov V.V. O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalari va ularga qarshi kurash (darslik). Toshkent, 1962.